

## OIV va OITS DAN SAQLANING!

*Oxunova Feruza*

*2-Sonli Farg'ona Jamoat Salomatligi Saqlash texnikumi*

*"Hamshiralik ishi asoslari" fani o'qituvchisi*

*T.T.B. Reanimatsiya bo'limi anestezist hamshirasi*

OIV ( ВИЧ )- odam immuninteti tanqisligini keltirib chiqaruvchi virus. Asosan odamning immunitet ( himoya ) tizimiga ta'sir ko'rsatadi.

OITS ( СПИД ) ORTTIRILGAN IMMUNITET tanqisligi sindromi. U OIV inson organizmida virus bor bo'lib ammo kasallik alomatlari xali namoyon bo'lмаган davrdir. Bu davrda inson virus tashuvchi hisoblanadi.

OITS- kasallikning so'ngi bosqichi. Bu davrda inson organizmi har qanday kasallikkha bardosh berish xususiyatini yo'qotadi.

OIV da odam organizmiga tushgan virus ta'siri immunitet tizimi ma'lum darajada javob qaytaradi. Kasallik alomatlari deyarli bo'lmaydi. Uni faqat labaratoriya tekshiruvlari orqali aniqlash mumkin. Virus bilan organism o'rtasidagi kurash uzoq davom etadi va odatda, virusning g'alabasi bilan yakunlanadi. Shu vaqtadan OITS davri boshlangan xisoblanadi. Bu davr uchun hos bo'lган alomatlар yo'q. Biroq bu davrda organizmda duch kelgan mikrob kasallik qo'zg'atishi mumkin. Shuning uchun bu tuzalishi qiyin bo'lган turli- tuman kalallik alomatlari bilan nomoyon bo'ladi.

Infeksiya yuqqan dastlabki davrlarda odam o'zini sog'lom his qiladi, bunday holat hech qanday alomatlarsiz 8-10 yilgacha cho'zilishi mumkin. Bu davrda kishi sog'lomdek ko'rinsa ham, o'zi bilmagan holda kasallik virusni boshqalarga yuqtirish havfi yuqori bo'ladi.

Baxtga qarshi, kasallik qanday kechishdan qat'iy nazar, doimo OIV infeksiyasi davri OITS davriga albatta o'tadi.

Virus infeksiyasi yuqqan odamning qonida, erkaklarning shaxvatida, ayollarning jinsiy a'zolari ajratmalarida va ko'krat sutida bo'ladi. Shuning uchun virus asosan 3 xil yo'l bilan yuqadi: qon orqali ( parenteral ), jinsiy aloqa orqali, kasallik yuqtirgan onadan xomilaga ( vertical ) o'tishi mumkin.

### **Qaysi hollarda OIV yuqmaydi?**

Qo'l berib ko'rishganda, quchoqlashganda, yo'talganda, aksa urganda, umumiy telefondan foydalanganda, hashoratlar chaqqanda, baseyn, xammon, xojatxonadan umumiy foydalanganda, umumiy idish- tavoqdan, kiyim-kechak va ko'rpa-to'shak orqali OIV boshqa odamga yuqmaydi.

### **OIV infeksiyasining dastlabki belgilari**

Tana xaroratining sababsiz ko'tarilishi, ( bir necha hafta davomida ) bir oydan ko'proq vaqt mobaynida yo'talishi, hech qanday sababsiz ozish, ich ketishi va uning

haftalab, oylab davom etishi, o'mrov osti, qo'ltiq osti, chov sohasidagi limfa tugunlarining kattalashuvi.

**OIV-OITS ni davolab bo'ladimi?**

Afsuski, hozirgi kunda bu xastalikning oldini oladigan vaksina ishlab chiqilmagan. Shuning uchun bu borada shaxsiy profilahnikaning axamiyati kata. Eng yaxshi yo'l- odob chegarasidan chiqmaslik!

Xozirgi kunda davolash uchun mavjud dorilar faqat kasallikning OITS davriga o'tishni biroz orqaga suradi. Ularni uzoq mobaynida muntazam qabul qilish lozim.

O'zingizni va o'z yaqinlaringizni himoya qiling.

Sog'lom turmush tarziga qat'iy rioya qiling!